ERONNING MINTAQAVIY LOGISTIK KORIDORLARI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA PROKSI GURUHLARNING O‘RNI

Ma’diyeva Abera
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti
Xalqaro munosabatlar yo‘nalishi, 2-bosqich talabasi

Annotatsiya Mazkur maqolada Eron Islom Respublikasining Yaqin Sharqdagi strategik logistik koridorlarini himoya qilishda “axis of resistance” (qarshilik ko‘rsatish o‘qi) tarkibiga kiruvchi proksi guruhlarning roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda yetakchi xalqaro aqliy markazlarning (CSIS, MRS, IIIS, SNSC) hisobotlariga asoslangan holda, Tehrondan O‘rta yer dengizigacha bo‘lgan “quruqlik ko‘prigi” xavfsizligini ta’minlash mexanizmlari o‘rganiladi. Maqolada gibrid urushlar sharoitida proksi guruhlarning tranzit yo‘llarini nazorat qilish, asimmetrik jihatdan jilovlab turish va infratuzilmaviy xavfsizlikni saqlashdagi roli ochib berilgan. Muxtasar qilib aytganda, ushbu koridorlarning mintaqaviy barqarorlikka ta’siri va tashqi kuchlarning (AQSh, Isroil) aksil-strategiyalari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: proksi guruhlar, asimmetrik urush, IPIS, Tehron strategik tadqiqotlar markazi, “qarshilik ko‘rsatish o‘qi”

KIRISh Global siyosiy maydonda an’anaviy “kuchlar muvozanati” tushunchasi o‘rnini ko‘p vektorli va asimmetrik ta’sir o‘tkazish vositalar egallayotgan bir paytda, davlatlarning tashqi siyosiy strategiyalari fundamental o‘zgarishni boshdan kechirmoqda. Endilikda xalqaro munosabatlarning klassik diplomatik vositalari murakkab mintaqaviy mojarolar va geosiyosiy raqobatlar sharoitida kutilgan samarani bera olmayapti. Mohiyatan, strategik qarorlar qabul qilishda aqliy resurslar, ya’ni siyosiy tahlil markazlari (think-tanks) tomonidan ishlab chiqilgan ilmiy va amaliy modellar davlat apparatining ajralmas qismiga aylanib ulgurdi. Eron Islom Respublikasi bu borada o‘ziga xos “intellektual suverenitet” modelini shakllantirgan davlat sifatida namoyon bo‘ladi. 1979-yilgi inqilobiy o‘zgarishlardan so‘ng Tehronda qaror qabul qilish jarayonlari nafaqat mafkuraviy doktrinalarga, balki milliy xavfsizlikni ta’minlashning innovatsion usullariga ham tayanib kelmoqda. Ayniqsa, Eronning mintaqaviy logistik ustunligini ta’minlashga qaratilgan strategiyasi shunchaki tranzit yo‘laklarini yaratish emas, balki ularni asimmetrik xavfsizlik zonalari bilan o‘rashni nazarda tutadi. Ushbu murakkab jarayonda Eron Tashqi ishlar vazirligi huzuridagi IPIS, Strategik tadqiqotlar markazi kabi muassasalar tashqi siyosatning “think tank”i vazifasini bajarib, “qarshilik ko‘rsatish o‘qi” (Axis of Resistance) tarkibidagi proksi guruhlarning logistik koridorlar xavfsizligidagi o‘rnini nazariy jihatdan asoslab beradi.

Mazkur maqolaning asosiy tadqiqot obyekti - Eronning mintaqaviy logistik yo’laklarini himoya qilishda proksi guruhlardan foydalanish taktikasi va ushbu hodisaning nufuzli aqliy markazlar tomonidan qay yo’sinda talqin etilishidir. G‘arb tahliliy maktablari (masalan, CSIS va Brookings Institution) bu tizimni mintaqaviy barqarorlikka tahdid soluvchi “nolegal harbiy-logistik tarmoq” sifatida tavsiflasa, Eronning ichki tahlil markazlari buni tashqi sanksiyalar va agressiyaga qarshi “iqtisodiy va xavfsizlik qalqoni” deb baholaydi. Ushbu qarama-qarshi qarashlarni o‘rganish, zamonaviy Yaqin Sharqdagi logistik koridorlar atrofida sodir bo’layotgan geosiyosiy o’yinlarning mohiyatini chuqur anglash imkonini beradi.


ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Fabrice Balanchening maqolasida Yaqin Sharqdagi geosiyosiy jarayonlar, ayniqsa Eronning Levant hududidagi strategik ta’sirini kengaytirish siyosati tahlil qilinadi. Muallif “Eron quruqlik yo‘lagi” konsepsiyasi orqali Tehronning Iroq, Suriya va Livan orqali O‘rta yer dengiziga chiqish imkoniyatlarini mustahkamlashga intilayotganini asoslab beradi. Balanche mazkur jarayonni zamonaviy geosiyosatda hududiy nazorat va transport yo‘laklarining ahamiyati qayta ortib borayotgani bilan izohlaydi.

Yaqin Sharqdagi geosiyosiy jarayonlarni o‘rganishda qiyosiy-siyosiy tahlil va kontent-analiz metodlaridan foydalanilgan.

NATIJALAR

1-ilova



Manba: Institute for the Study of War (ISW) - Urushni o'rganish instituti (Vashington, AQSh).

Eronning Tehrondan boshlanib, Iroq va Suriya orqali O‘rta Yer dengiziga chiquvchi quruqlikdagi yo’nalishi “quruqlik ko‘prigi” aniq tasvirlangan (1-ilova). Xaritadagi rangli hududlar “axis of resistance” tarkibidagi ittifoqchi kuchlarning strategik tranzit yo‘nalishlaridagi nazorat zonalarini anglatadi. Xususan, Livanda joylashgan Hizbulloh Suriya hududidan ya’ni Bayrut, Damashq, Latakiya hududlarida o’tadigan tranzit yo’laklaridan to O‘rta Yer dengizigacha xavfsizlikini ta’minlasa, Al-Hashd ash-Shaabi tarkibidagi guruhlar Bag’doddan tortib, Al-Bukamal va Al-Qaim chegara o‘tish hududigacha bo‘lgan xavfsizlik yo’llarini nazorat qiladi hamda Fatimiyyun kabi kuchlar bilan hamkorlikda Dayr uz-zavr kabi muhim logistik tugunlar himoya qiladi. Ushbu tasvir Eronning logistik chidamliligi bevosita mazkur proksi guruhlarning mintaqaviy joylashuviga bog‘liq ekaniligining yaqqol misolidir.

ASOSIY QISM

Eron Islom Respublikasining Yaqin Sharqdagi strategik faoliyati bugungi kunda shunchaki mafkuraviy ta’sir doirasini kengaytirish emas, balki “quruqlik ko‘prigi” (Land Bridge) deb ataluvchi murakkab va ko‘p qirrali logistik zanjirni barpo etish hamda uni har

qanday tashqi tahdidlardan himoya qilishga qaratilgan. Fabritse Balansh o’zining “Levantdagi Eron quruqlik ko‘prigi” nomli tadqiqotida ta’kidlaganidek, ushbu koridor Eron uchun o‘zining geosiyosiy suverenitetini chegaradan tashqariga olib chiqish va O‘rta yer dengizi sohillarigacha bo‘lgan masofada uzluksiz ta’minot zanjirini yaratish imkonini beradi. Ushbu logistik yo’nalishning barqarorligi bevosita “qarshilik o’qi” tarkibidagi proksi guruhlarning faoliyati bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, ular koridorning xavfsizlik arxitekturasida “immunitet tizimi” vazifasini o‘taydi.

CSIS - “Center for Strategic and International Studies” nazdida xususan, Seth G. Jones kabi yetakchi olimlar uchun Eronning Yaqin Sharqdagi faoliyati shunchaki mafkuraviy harakat emas, balki “precision strike revolution” orqali amalga oshirilayotgan asimmetrik ekspansiyadir. Bu tizim yaxlit bir “Gibrid urush mexanizm”i bo‘lib, unda logistik koridorlar - qon aylanish tizimi rolini o‘ynagan bir paytda, proksi guruhlar - ijrochi organlar, Eron qurol texnologiyasi esa ushbu organizmning boshqaruv miya vazifasini o‘taydi. Ushbu organizmning asosi bo’lgan Iroq, Suriya va Livan orqali o‘tuvchi logistik koridor shunchaki yo‘l emas, balki yuqori texnologiyali qurollarni yetkazib beruvchi murakkab zanjirning ozagi hisoblanadi. Tadqiqot markazining sun’iy yo‘ldosh tahlillari shuni korsatadiki, Eron bu “opaque logistics” yoxud yashirin logistika orqali PGM (Precision-Guided Munitions) - aniq nishonga uruvchi qurollar tarkibiy qismlarini proksi guruhlarga muntazam ravishda yetkazib beradi. Mazkur tizimning operatsion o’zagi hisoblanmish Hizbulloh Eron taqdim etayotgan texnologik ko”maginig asosiy retsepienti - qabul qiluvchisi bo’lsa, HAMAS G’azodagi qamal holatida ushbu asimmetrik tajribalarni bevosita hayotga tatbiq qiluvchi kuch sifatida namoyon bo‘lmoqda. Tizimning “Janubiy strategik qanoti” bo‘lgan xusiylar esa Eronning “arzon qurol - qimmat himoya” strategiyasining eng muvaffaqiyatli namunasi sifatida Qizil dengizdagi global savdo yo’llariga tahdid soladi. Bu holatning mantiqiy silsilasi shuni ko’rsatadiki: Eronning bir necha ming dollarlik droni G’arbning million dollarlik mudofaa raketalarini sarflashga majbur qiladi va raqibni iqtisodiy jihatdan charchatadi. CSIS olimlarining xulosasiga ko‘ra, butun “Qarshilik o‘qi” tizimi “plausible deniability” (inkor etish imkoniyati) prinsipiga tayanib, “kulrang zona” (gray zone) operatsiyalarini amalga oshiradi. Ya’ni, Eron o‘z proksilari orqali zarba beradi, lekin rasman urushga kirmasdan javobgarlikdan qochadi. Shunga ko’ra, CSIS G’arb davlatlariga Yaqin Sharqdagi mojarolarga sof harbiy emas, balki aynan murakkab-texnologik va strategik jilovlab turish nuqtayi nazaridan qarash lozimligini ta’kidlaydi.

‘‘Brookings Institution’’ yetakchi olimi Daniel Byman Eron va uning ittifoqchilari o‘rtasidagi aloqani “vassallik” emas, balki “strukturaviy yaxlitlik” (organic integration) deb ataydi. Zotan, Eronning strategiyasi “kuchsiz davlatlar” (fragile states) ichida rasmiy hukumatga muqobil bo’lgan, biroq davlat resurslaridan foydalanadigan “gibrid boshqaruv” modellarini yaratishga qaratilgan. Masalan, Livandagi Hizbulloh shunchaki qurolli guruh emas, balki o‘z ijtimoiy xizmatlariga ega bo‘lgan “soyadagi hukumat”dir. Mazkur yondashuvning tub mohiyati shuki, Eron logistik koridori nafaqat qurol-yarog’, balki siyosiy mafkurani eksport qiluvchi (export revolution) va strategik nuqtalarda pro-eron aholi qatlamini shakllantiruvchi “ijtimoiy-siyosiy transmitter” (uzatuvchi) vazifasini bajaradi.

Urushni o‘rganish instituti (ISW) ushbu murakkab Eronning logistik yo’llarini “Strategik chuqurlik” (Strategic Depth) nazariyasining amaliy asosi sifatida talqin qiladi. ISW olimlarining tahlillariga ko’ra, “Qarshilik o‘qi” bamisoli yagona nerv tizimi kabi ishlaydi. Ushbu strategik tamoyil juda sodda tuzilgan masalan, Hamas G’azoda harakat boshlaganda, Hizbulloh shimolda, Husiylar esa Qizil dengizda “sinxronlashgan asimmetrik

operatsiyalar”ni amalga oshiradi. Bu raqibning harbiy razvedka resurslarini tarqatib yuborishga va strategik qaror qabul qilish jarayonini kechiktirishga qaratilgan. Mazkur zanjir Eron mudofaa chizig’ini Tehrondan O‘rtayer dengizigacha kengaytirib, o‘z hududini ehtimoliy zarbalardan himoya qiluvchi ulkan “geosiyosiy bufer zona” yaratgan.

Yaqin Sharqdagi geosiyosiy holatnini tahlil qilishda G‘arb va Eron aqliy markazlari o‘rtasida fundamental tafovut juda katta. G‘arbning CSIS yoki ISW kabi institutlari Eronning “Qarshilik o‘qi” tizimini ekspansiv tahdid sifatida baholasa, Tehrondagi Xalqaro tadqiqotlar instituti (IIIS) ushbu tizimni Eron suverenitetini himoya qiluvchi “Ilg‘or mudofaa” (Forward Defense) doktrinasi sifatida taqdim etadi. Ushbu yondashuvda proksi guruhlar va logistik koridorlar Eronning mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasidagi ajralmas bo‘g‘inlari hisoblanadi.

IIIS tahlilchilari uchun logistik koridor shunchaki qurol tashish yo‘li emas, balki Eron chegaralaridan uzoqda joylashgan mustahkam “mudofaa qalqoni”dir. Mohiyatan ushbu startegiya, xavf-xatarni Eron hududiga kirmasdan turib, uzoq masofalarda qaytarishga asoslangan. Bu tizimda “Hizbulloh” yoki “Al-Hashd ash-Shaabi” kabi proksi guruhlar koridor xavfsizligini ta’minlovchi asosiy ilg‘or chegara qo‘shinlari vazifasini o‘taydi. IIIS nigohida, agar ushbu kuchlar Iroq va Suriya hududidagi logistik yo‘llarni nazorat qilmasa, Eron o‘z chegaralarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri radikal guruhlar yoki G‘arb koalitsiyasi bilan to‘qnash kelishiga to‘g‘ri keladi. Binobarin, koridorning xavfsizligi - bu bevosita Eron milliy xavfsizligining kafolatidir. Eron aqliy markazlari proksi guruhlarning rolini mintaqaviy suverenitetni tashqi kuchlardan himoya qilish nuqtayi nazaridan asoslaydi. G‘arb buni ekspansiya deb atasa-da, IIIS buni AQSHning “mintaqaviy gegemonligi”ga qarshi muvozanatlovchi kuch (counter-balancing force)sifatida baholaydi. Ushbu guruhlar koridor bo‘ylab nafaqat harbiy, balki iqtisodiy va razvedka xavfsizligini ham ta’minlaydi. Ular xalqaro sanksiyalarni chetlab o‘tish va mintaqaviy savdo-sotiqni davom ettirish uchun o‘ziga xos “xavfsizlik soyaboni” ni yaratadi. IIIS tahlillariga ko‘ra, bu koridorlar mintaqa davlatlariga tashqi kuchlarga muhtoj bo‘lmasdan, o‘zaro integratsiyalashish imkonini beruvchi strategik avtonomiya vositasidir.

So‘nggi yillarda Eron strategik doiralarida “Maidat al-Vahida” (Maydonlar birligi) tushunchasi ustuvorlik qilib kelmoqda. Ushbu konsepsiyaga ko‘ra, logistik koridorlar Livan, Suriya, Iroq va Yamanni bog‘lovchi “geosiyosiy ko‘prik” vazifasini bajaradi. Agar koridorning bir nuqtasida xavf yuzaga kelsa, boshqa nuqtalardagi ittifoqchi kuchlar bosimni oshirish orqali umumiy xavfsizlikni qayta tiklaydi. IIIS buni “kollektiv jilovlash” modeli deb ataydi, bu yerda proksilar shunchaki yo‘llarni qo’riqlamaydi, balki butun tizimning barqarorligini ta’minlovchi hayotiy yo’llarni ochiq saqlaydi.

IIIS nuqtai nazaridan qaraganda, Eronning mintaqaviy strategiyasi tajovuzkor ekspansiya emas, balki hayotiy zaruriyatga asoslangan mudofaa modelidir. Proksi guruhlar esa ushbu modeldagi suverenitet himoyachilari sifatida gavdalanadi. G’arb markazlari ushbu tizimga xatar deb qarasa, Eron markazlari uni G‘arb imperializmiga qarshi qalqon va mintaqaning “xavfsizlik o’zagi” deb baholaydi. Ushbu ikki qarama-qarshi qutbni anglash Yaqin Sharqdagi zamonaviy mojarolarning tub mohiyatini tushunishda eng muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

XULOSA

Sirasini aytganda, Eron Islom Respublikasining Yaqin Sharqdagi logistik strategiyasi shunchaki transport yo‘laklarini yaratish emas, balki mintaqaviy xavfsizlik arxitekturasini

tubdan o‘zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli geosiyosiy loyihadir. “Quruqlik ko‘prigi” (Land Bridge) konsepsiyasi Tehron uchun ham harbiy-strategik, ham iqtisodiy blokadalarni yorib o‘tishning muhim vositasi bo‘lib xizmat qilmoqda.

Tadqiqot davomida aniqlanganidek, ushbu murakkab logistik zanjirning barqarorligini ta’minlovchi asosiy mexanizm - bu proksi guruhlar tarmog‘idir. G‘arb aqliy markazlari nigohida ushbu guruhlar davlat suverenitetini yemiruvchi va “status in statu” (davlat ichidagi davlat) tizimini barpo etuvchi noqonuniy tuzilmalar sifatida baholansa, Eron aqliy markazlari ularni tashqi tajovuzga qarshi “mudofaa qalqoni” va mintaqaviy xavfsizlik integratsiyasining asosi deb talqin etadi. Bu ikki qarama-qarshi qutbdagi tahlillar shuni anglatadiki, mintaqadagi logistik yo‘llar nafaqat qurol-yarog‘ tranziti, balki mafkuraviy va intellektual hukmronlik kurashi maydoniga aylangan.

Isroil tomonidan qo‘llanilayotgan strategiya koridor samaradorligini pasaytirishga qaratilgan bo‘lsa-da, proksi guruhlarning mahalliy darajadagi chuqur ildiz otishi va demografik o‘zgarishlar logistik zanjirning chidamliligini oshirmoqda. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Eronning “quruqlik ko‘prigi” loyihasining amalga oshishi proksi guruhlarning muhim strategik nuqtalarda xavfsizlikni ta’minlashi bilan chambarchas bog’liq va ushbu loyihani “qarshilik o‘qi” siz amalga oshirish deyarli ilojsiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Balanche, F. (2018). The Iranian Land Bridge in the Levant: The Return of Territory in Geopolitics. Telos: A Quarterly Journal of Critical Thought. Retrieved from https://shs.hal.science/halshs-03175778v1
2. Smyth, P. (2016). How Iran Is Building Its Syrian Hezbollah. The Washington Institute for Near East Policy. https://www.washingtoninstitute.org/policy-analysis/how-iran-building-its-syrian-hezbollah
3. Institute for the Study of War (ISW). (2017). Iran’s New Southern Route to the Mediterranean. https://understandingwar.org/analysis/middle-east/
4. Center for Strategic and International Studies (CSIS). (2020). The Evolution of Iran’s Proxy Strategy. https://www.internationaljournalssrg.org/IJHSS/paper-details?Id=510
5. Taha, H., & Therme, C. (2017). Les groupes chiites en Irak: enjeux nationaux et dimensions transnationales. Politique étrangère, Winter, no. 4, pp. 29–40.
6. Balanche, F. (2018). Sectarianism in Syria’s Civil War: A Geopolitical Study. Washington Institute for Near East Policy.
7. The Economist. (2017). Iran’s possible land corridor.
8. Kaplan, R. D. (2012). The Revenge of Geography: What the Map Tells Us About Coming Conflicts and the Battle Against Fate. Random House.
9. Abdo, Geneive (2011 August 25). “How Iran Keeps Assad in Power in Syria.” Foreign Affairs. 5-11 pp.
10. Majlis Research Center (2024). Evaluation of the 2021 National Budget Bill from the Perspective of Development Level. Majlis Research Center of the Islamic Republic of Iran. https://rc.majlis.ir/fa/report/show/1667927
11. Mojtahed Zadeh, Pirouz (2012). The Philosophy and Function of Geopolitics (Concepts and Theories in the Era of Virtual Space); Tehran: Samit Publications, first edition. – P. 91-120.

12. Wrobel, Ralph (2014). South Korea’s Reunification Think Tanks: The Development of a Marketplace for Ideas, The German Journal on Contemporary Asia, 3. 5-24 pp.
13. Vali Nasr. (2006). The Shia revival: How conflicts within Islam will shape the future. W.W. Norton & Company. 324 p.
14. Anoushiravan Ehteshami (2002). After Khomeini: The Iranian Second Republic. Routledge. 264 p.